

2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Farg'ona viloyatida 6718 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2672 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6,4 mingta (21,7 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 35,7 mingtani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-dekabr holatiga 35678 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,6 % sanoatda, 8,1 % qurilishda, 25,7 % savdoda, 3,9 % tashish va saqlash, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,7 % boshqafaoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, ming birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	29327	35678	21,7	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1547	1740	12,5	4,9
Sanoat	6263	7693	22,9	21,6
Qurilish	2444	2896	18,5	8,1
Savdo	6271	9163	46,1	25,7
Tashish va saqlash	1178	1411	19,7	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1344	1746	29,9	4,9
Axborot va aloqa	991	1033	4,2	2,9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	706	808	14,4	2,3
Boshqa turlari	8583	9188	7,1	25,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (9163 ta) savdo, (7693 ta) sanoat, (2896 ta) qurilish, (1740 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1746 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (1411 ta) tashish va saqlash, (1033 ta) axborot va aloqa, (808 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (9188 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 35189 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6267 ta (21,7 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,7 % savdo, 21,7 % sanoat, 8,1 % qurilish, 4,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 2,9 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Farg'ona shahri (6304 ta), Qo'qon shahri (4740 ta), Marg'ilon shahri (3531 ta), Uchko'prik tumani (1809 ta) va Dang'ara tumani (1692 ta) shahar, tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha So'x tumani (812 ta), Furqat tumani (841 ta) hamda Yozyovon (748 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 6718 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2672 taga ko'pdir.


Yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar asosiy qismi Farg'ona (1060 ta), Qo'qon (811 ta), Marg'ilon (628 ta) shaharlarida, Oltiariq (385 ta), Quva (418 ta) va O'zbekiston (320 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


Eng kam So'x (88 ta) hamda Yozyovon (130 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1598 ta), savdoda (2896 ta), qurilishda (476 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (260 ta), tashish va saqlashda (252 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (418 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (89 ta), va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (101 ta) tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga 29301 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 9937 ta, oilaviy korxonalar - 3654 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 15055 ta va boshqalar 655 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-dekabr holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 409 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 135 taga yoki 49,3 % ga o'sgan. Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 406 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, asosiy qismi Farg'ona 136 ta (33,5 %), Qo'qon 57 ta (14,0 %), Marg'ilon 23 ta (5,7 %), Quvasoy 22 ta (5,4) shaharlarida, Farg'ona tumanida 23 ta (5,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 3 ta (0,7 %), Furqat tumani 5 ta (1,2 %), Qo'shtepa tumani 7 ta (1,7 %), Bag'dod tumani 8 ta (2,0 %), Buvayda tumani 9 ta (2,2 %) va Yozyovon tumani 5 ta (1,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 283 tasi qo'shma, 123 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	406	100,0
Farg'ona shahar	136	33,5
Qo'qon shahar	57	14,0
Quvasoy shahar	22	5,4
Marg'ilon shahar	23	5,7
<i>Tumanlar:</i>		
Oltiariq tumani	19	4,7
Qo'shtepa tumani	7	1,7
Bog'dod tumani	8	2,0
Buvayda tumani	9	2,2
Beshariq tumani	6	1,5
Quva tumani	16	3,9
Uchko'prik tumani	10	2,5
Rishton tumani	9	2,2
So'x tumani	3	0,7
Toshloq tumani	12	3,0
O'zbekiston tumani	20	4,9
Farg'ona tumani	23	5,7
Dang'ara tumani	16	3,9
Furqat tumani	5	1,2
Yozyovon tumani	5	1,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 127 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 57 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Farg'ona 36 ta (28,3 %), Qo'qon 13 ta (10,2 %), Marg'ilon 3 ta (2,4 %), Quvasoy 7 ta (5,5) shaharlarida, Farg'ona tumanida 7 ta (5,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Bunda, Xitoy Xalq Respublikasi - 17 ta, Rossiya Federatsiyasi - 18 ta, J.Koreya Respublikasi - 16 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 1 ta, Turkiya Respublikasi - 8 ta, Germaniya Federativ Respublikasi - 1, Latviya Respublikasi - 1, Buyuk Britaniya qirolligi - 1, Ozarbayjon Respublikasi - 2, Armaniston Respublikasi - 3, Amerika Qo'shma shtatlari - 1, Shvetsiya qirolligi - 1 tadan va yana bir qator boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek bir nechta davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyat yurgazishga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 67 ta, savdoda 22 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi 15 ta, qurilishda 3 ta va boshqa korxonalarda 20 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 29,4 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 26,1 % ga oshgan.

Ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5342 tasi (18,1 %) Farg'ona, 4181 tasi (14,2 %) Qo'qon, 3184 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1595 tasi (5,4 %) Uchko'priq va 1459 tasi (5,0 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jami ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Farg'ona shahar
18,3 %



Beshariq tumani
2,7 %



Qo'qon shahar
14,3 %



Rishton tumani
2,7 %



Marg'ilon shahar
10,9 %



Furqat tumani
2,2 %



Uchko'pik tumani
5,3 %



So'x tumani
2,2 %




Dang'ara tumani
5,0 %



Yozyovon tumani
1,9 %


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ro'yxatdan o'tgan jami 29446 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 9129 tasi (31,0 %) - savdoda, 7644 tasi (26,0 %) - sanoatda, 2878 tasi (9,8 %) - qurilishda, 1683 tasi (5,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1738 tasi (5,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1396 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 1031 tasi (3,5 %) - axborot va aloqa sohasida, 616 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 3331 tasi (11, %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-noyabr oyida 6432 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2018-yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2916 taga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (1009 ta), Qo'qon (782 ta), Marg'ilon (616 ta) shaharlarida, Oltiariq (371 ta) va Buvayda (308 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (82 ta), Furqat (144 ta) hamda Yozyovon (120 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2895 ta), sanoatda (1595 ta), boshqa turdagi xizmatlar (364 ta), qurilishda (474 ta), tashish va saqlashda (252 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (246 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (418 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (89 ta), hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (99 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 3689 tani tashkil etib, ulardan 3654 tasi yoki 99,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 34,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 45,7 % yoki 1671 tasi sanoat, 14,1 % yoki 517 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,2 % yoki 700 tasi savdo, 7,5 % yoki 274 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2,0 % yoki 74 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 44 tasi qurilish, 0,9 % yoki 34 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,4 % yoki 308 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Farg'ona viloyati	1002	100,0
Farg'ona shahar	109	10,9
Qo'qon shahar	50	5,0
Quvasoy shahar	21	2,1
Marg'ilon shahar	76	7,6
<i>Tumanlar:</i>		
Oltiariq tumani	72	7,2
Qo'shtepa tumani	31	3,1
Bog'dod tumani	60	6,0
Buvayda tumani	63	6,3
Beshariq tumani	57	5,7
Quva tumani	49	4,9
Uchko'prik tumani	60	6,0
Rishton tumani	126	12,6
So'x tumani	10	1,0
Toshloq tumani	49	4,9
O'zbekiston tumani	49	4,9
Farg'ona tumani	73	7,3
Dang'ara tumani	14	1,4
Furqat tumani	31	3,1
Yozyovon tumani	2	0,2

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 1002 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 375 taga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Rishton tumani (126 ta), Farg'ona shahar (109 ta), Marg'ilon shahar (76 ta) va Farg'ona tumani (73 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam So'x tumani (10 ta), Yozyovon tumani (2 ta) hamda Dang'ara tumani (14 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 39,6 % yoki 397 tasi sanoat, 34,1 % yoki 342 tasi savdo, 15,0 % yoki 150 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 3,5 % yoki 35 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 6 tasi qurilish, 1,2 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 4,4 % yoki 44 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Viloyat statistika boshqarmasi Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Tel.:71-230-87-37

